

ODDIY TOG‘JAMBIL – (THYMUS VULGARIS) O‘SIMLIGIDAN FITOTERAPIYADA FOYDALANISH

Xoshimova Zarina Farxod qizi,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
Chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 77 uy

ANNOTATSIYA

Fitoterapiya naturopatiyada eng qadimgi davolash usullaridan biridir. Uning kelib chiqishi tosh davriga borib taqaladi. Dorivor o‘simliklar Xitoyda va Hindistonda miloddan avvalgi oltinchi ming yillik boshlarida o‘stirilgan. Miloddan avvalgi XVII asrda Misrda 700 xil o‘simlik moddalari, xususan, qizilmiya, zira, zig‘ir urug‘i va kenevir qayd etilgan. Zamonaviy fitoterapiya esa XVIII asrda morfin kashf qilinishi bilan boshlangan.

Ushbu maqolada tog‘jambil o‘simligining fitoterapevtik xususiyatlari hamda tog‘jambil o‘simligi ishtirogida tayyorlangan yig‘machoylar va ba‘zi kasalliklarni davolashda foydalaniladigan qaynatma va damlamalar to‘g‘risida retseptlar bayon qilinadi.

***Kalit so‘zlar.** Fitoterapiya, qaynatma, tindirma, ekstraktlar, poroshok, damlama, gipertoniya, bronxial astma, ateroskleroz, ko‘k‘yo‘tal, zotiljam, buyraktosh kasalligi*

АННОТАЦИЯ

Фитотерапия является одним из древнейших методов лечения в натуропатии. Её происхождение уходит корнями в каменный век. Лекарственные растения выращивались в Китае и Индии уже в начале VI тысячелетия до нашей эры. В XVII веке до нашей эры в Египте было зафиксировано около 700 видов растительных веществ, в частности солодка, тмин, семена льна и конопля. Современная фитотерапия начала развиваться в XVIII веке с открытием морфина.

В данной статье описываются фитотерапевтические свойства растения тимьян, а также приводятся рецепты травяных сборов, отваров и настоев, приготовленных с использованием тимьяна и применяемых при лечении некоторых заболеваний.

***Ключевые слова.** Фитотерапия, отвар, настойка, экстракты, порошок, настой, гипертония, бронхиальная астма, атеросклероз, коклюш, пневмония, почечнокаменная болезнь.*

ABSTRACT

Phytotherapy is one of the oldest treatment methods in naturopathy. Its origins date back to the Stone Age. Medicinal plants were cultivated in China and India as early as the beginning of the sixth millennium BC. In the 17th century BC, about 700 types of plant substances were recorded in Egypt, including licorice, cumin, flax seeds, and cannabis. Modern phytotherapy began to develop in the 18th century with the discovery of morphine.

This article describes the phytotherapeutic properties of thyme and presents recipes for herbal teas, decoctions, and infusions prepared with thyme that are used in the treatment of certain diseases.

Keywords. *Phytotherapy, decoction, tincture, extracts, powder, infusion, hypertension, bronchial asthma, atherosclerosis, whooping cough, pneumonia, kidney stone disease.*

KIRISH

Dorivor o‘simliklardan turli dori shakllari jumladan, damlama, qaynatma, tindirma, ekstraktlar, poroshoklar va boshqalar tayyorlanadi. Fitoterapiya, ya’ni o‘simlikdan kelib chiqishiga ega dorivor vositalar bilan davolash, rivojlanishda davom etmoqda. Ayniqsa, keyingi vaqtlarda dorivor xomashyoda mavjud moddalarni miqdoriy aniqlash imkonini beruvchi ko‘plab usullar topilgani hamda dorivor xomashyoni standartlashtirish mumkin bo‘lgani bu sohaning rivojlanishiga katta yordam bermoqda.

So‘nggi yillarda dorivor o‘simlik xomashyosi va ulardan tayyorlangan preparatlarni standartlashtirish, ulardagi farmakologik faol moddalar miqdorini aniqlash nihoyatda zarur hisoblanadi. O‘simliklardagi faol moddalar miqdori turli tashqi va ichki omillar bilan belgilanadi: atrof-muhit ta’siri — iqlim, tuproq va boshqa sharoitlar, shuningdek o‘simlik organizmidagi metabolizm jarayonlari bunga ta’sir ko‘rsatadi. Bu masalalar farmakognoziya va fitoterapiyaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Eng dolzarb muammolardan biri — eng samarali dorivor o‘simliklarni bir xil rivojlanish sharoitida yetishtirish va shu orqali ulardagi faol moddalar miqdorining bir xil bo‘lishini ta’minlashdir. Shu bilan birga, dorivor o‘simliklarni o‘rganishda farmakokimyoviy hamda farmakologik tadqiqot usullarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish zarur.

Ibn Sinoning “Tib qonunlari” da keltirilgan dorivor o‘simliklar, ularning ishlatilishi va ishlatish usullari alohida ahamiyatga sazovordir. Chunki Ibn Sino o‘zigacha o‘tgan tabiblarning tajribalarini sinchiklab o‘rganib, ularni yanada mukammallashtirgan, ularga yangi muolajalarni qo‘shib, o‘sha zamondagi xalq

tabobatida ishlatib kelingan dorivor o'simliklar va mevalarning tibbiyotdagi ahamiyatini har tomonlama ochib bergan.

Material va metodlar. Maqolada morfologik, fitokimyoviy va statistik usullardan foydalanilgan.

Buyrak tosh kasalligida foydalaniladigan yig'machoy: Makkajo'xori onalik ustunidan-60 g, loviya po'stlog'i va tog'jambil o'tidan-30 g, qalampir yalpiz bargi, archa mevasidan-20 g, qirqbo'g'im o'ti va samano'tdan-15 g dan olinadi va 4 osh qoshiqda maydalangan yig'mani termosdagi 1 litr qaynoq suvga solib qo'yiladi. Vaqt o'tgach 4 marta kun davomida ichiladi. Bu damlama peshob pH 5,2-5,6 bo'lganda tavsiya etiladi.

Bronxial astma, ko'kyo'tal, surunkali zotiljamda: Oddiy arpabodiyon mevalaridan 30 g, oddiy fenxel mevalaridan - 30 g, zig'ir urug'i - 20 g, oddiy jambil o'tidan - 20 g dan olib yig'ma tayyorlanadi. Bronxial astma, ko'kyo'tal, bronxlarning yuqumli kasalliklarida 1 litr iliq damlama ko'rinishida kuniga 3 marta 1/3 - 1/4 stakanda qabul qilinadi.

Oddiy jambil o'tidan- 20 g, ko'ka o'tidan - 20 g, kapalakgul o'tidan - 20 g, qora andiz ildizidan- 20 g, oddiy arpabodiyon mevalaridan- 20 g dan yig'iladi. Bronxial astma, bronxlar yuqumli kasalliklarida kuniga 3 marta iliq damlama ko'rinishida 1/3 - 1/4 stakandan qabul qilinadi.

Oddiy arpabodiyon mevalaridan- 20 g, oddiy fenxel mevalaridan - 20 g, oddiy jambil o'tidan - 20 g, qizilmiya ildizidan - 20 g, oddiy qarag'ay kurtaklaridan - 20 g dan yig'iladi. Bronxial astma, ko'kyo'tal, bronxlar yuqumli kasalliklarida kuniga 3 marta damlama ko'rinishida 1/3 - 1/4 stakandan qabul qilinadi.

Traxeobronxit, surunkali bronxit, o'tkir, quruq bronxit va bronxospazmda: Dorivor qashqarbeda o'ti - 5 g, oddiy jambil o'tidan - 10 g, oddiy fenxel mevalaridan - 10 g, qalam pir yalpiz barglaridan - 10 g, zubtutum barglaridan-15 g, qizilmiya ildizidan- 15 g, ko'ka barglaridan - 20 g dan yig'iladi. Yo'tal, traxeobronxit, surunkali bronxit, o'tkir, quruq bronxitda kuniga iliq 1 litr qaynatma yoki damlama ko'rinishida 1/3 - 1/4 stakandan qabul qilinadi.

Dorivor mavrak o'tidan - 20 g, oddiy jambil o'tidan - 15 g, dorixona moychechagi gullaridan - 15 g, zangori polemonium ildizidan - 15 g, arpabodiyon mevalaridan - 15 g, ko'ka barglaridan - 10 g, dorivor tirnoqgul gullaridan - 10 g dan yig'iladi. Bronxitda kuniga 3-4 marta ovqatdan keyin 1/3 - 1/4 stakandan 1 litr damlama ko'rinishida qabul qilinadi.

Ateroskleroz, gipertoniya kasalligida: Ruta o'tidan va tog'jambil o'tidan— 30 g, limono't barglaridan — 40 g dan olib, 1 osh qoshiq aralashma 1 stakan sovuq suvda 3

soat damlanadi, 5 daqiqa qaynatiladi va 15 daqiqa tindiriladi. Kuniga 1–2 stakan ichiladi.



1-rasm.

XULOSA

Fitoterapiyani to‘g‘ri amalga oshirish uchun juda ko‘p bilim va tajriba kerak. O‘simliklardan tayyorlangan preparatlar toksinlarni o‘z ichiga olishi mumkin, agar ular noto‘g‘ri dozada ishlatilsa, ko‘ngil aynish va qusish, yurak-qon tomir kasalliklari, falajlik va eng yomon holatda o‘linga olib kelishi mumkin. Shuning uchun dorivor o‘simliklardan to‘g‘ri tartibda foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sanoyev Z. I., Turdiyev P. Q., Raximova N., "FITOTEREPIYA" Toshkent – 2023
2. L i Boris Nikolayevich "Xalq tibbiyoti" Toshkent «Yangi asr avlodi» 2008
3. Begmatova M.X., Elmurodov, A.A. Shernazarov Sh.Sh. Nurniyozov A.A., // Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2023. “Fan ziyosi”
4. Ikramov M.I., Normurodov N. Yuldashev A.S. Lekarstvennyye rasteniya basseyna reki Zeravshan nujdayusya v oxrane // Geograficheskiye probl. Razvitiya zapovednogo dela. Tezisy dokl. Vsesoyuz nauchnoy konferensii. Samarkand.1986.S.78

5. Н.Х.Холматов,З.Н.Набибов,Н.З.Олимхо‘jayevaО‘zbekistonning shifobaxsh o‘simliklari.Toshkent. 1991b.28.
6. Q.Н.Ножиматов,К.У. Yo‘ldoshev, U.Ш.Шог‘уломов, О.Қ. Ножиматов. Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham.Toshkent 1995.b 24.
7. Khamrayeva M., Begmatova M. Healing properties and biometrical indicators of chelidonium majus L., introduced in uzbekistan //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – S. 495-498.
8. Бегматова М. Х. Тешик баргли далачой (биологик хусусиятлари, кимёвий таркиби, етиштириш технологияси) //Монография. СамДЧТИ. Самарқанд-2022.
9. Бегматова М. Х., Джумаева М., Хасанова Г. Биология и лекарственные свойства перспективных лекарственных растений //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – т. 16. – №. 5. – с. 53-57.
10. Hamdamov, I., Hamdamova, E. I., Suvonova, G. A., & Begmatova, M. Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi. Botanika qismi) Toshkent-2017 y, 245-247.
11. Begmatova M. et al. Technology of Cultivation of Medicinal Preparation “Hypericum Perforatum I” //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 510. – С. 01020.
12. Бегматова М. Х., Махмадиярова Ю. Н., Джумаева М. TESHIKBARG Dalachoy (hypericum perforatum) ning хом–ashyo fitomassasi //журнал биологии и экологии. – 2023. – Т. 5. – №. 1.
13. Бан Йорданов, Бан Николов "ФИТОТЕРАПИЯ" Медицина физкультура софия • 1972